

## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA FORSAYT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

**Xudaybergenova Zamira Isqaqovna,**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18639855>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada foresayt texnologiyasining bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda uning nazariy-metodologik asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, ta‘lim tizimida foresayt texnologiyasining bosqichlari va innovatsion pedagogik faoliyatda roli ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** foresayt texnologiyasi, tahliliy texnologiya, loyihalash texnologiyasi, kompetensiya, sinf, tarbiya.

**Аннотация.** В данной статье освещается значение технологии форсайт в развитии творческого потенциала будущих учителей начальных классов и ее теоретико-методологические основы. Также раскрыты этапы форсайт-технологии в системе образования и ее роль в инновационной педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** технология форсайта, аналитическая технология, технология проектирования, компетенция, класс, воспитание.

**Abstract.** This article highlights the importance of foresight technology in the development of creative potential of future primary school teachers and its theoretical and methodological foundations. The stages of foresight technology in the education system and its role in innovative pedagogical activity are also revealed.

**Keywords:** foresight technology, analytical technology, design technology, competence, class, upbringing.

**Kirish va dolzarbligi.** XXI asr uzluksiz ta‘lim tizimining barcha turlari, shu jumladan oliy ta‘lim tizimida ham pedagogik jarayonlar davlat va jamiyatning rivojlanish tendensiyalariga mos yaratuvchan sifatlarga ega, barcha faoliyat turlariga ijodiy munosabatda bo‘la oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan holda modellashtirishni talab etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar muhim o‘rinni egallaydi. “Pedagogik shart-sharoit” tushunchasi juda keng tushuncha bo‘lib, u pedagogik jarayonlarning barcha jabhalari bilan bog‘liqdir. Ya‘ni, pedagogik shart-sharoitlar yaxlit pedagogik tizimni samarali tashkil etishga ta‘sir etuvchi omillar, chora-tadbirlar, ta‘lim-tarbiyaning maqsadi, vazifalari, metodlari, vositalari, strategiyalari va boshqa jihatlari o‘z ichiga oladi.

**Metodlar va o‘rganilish darajasi.** Pedagogik kasbiy faoliyotga tayyorlashda foresayt texnologiyalaridan foydalanishning ayrim jihatlari rus olimlardan E.A. Rojdestvenskaya, S.A.Izyumnikova, tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, pedagogik jarayonlarni tashkil etishda vaziyatli yondashuvdan foydalanishning ayrim jihatlari R.X.Raxmanova, J.M.Otajonov, Sh.A.Allanazarovalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, mazkur ilmiy izlanishlarda

o'quvchilarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishda o'yinli-didaktik imitatsiyalardan foydalanish va boshqa tadqiqotlar qisman yoritilgan.

**Tadqiqot natijalari.** O'yinga asoslanmagan imitatsion texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

tahliliy texnologiya – axborotni ongli idrok etish; mavjud belgilari va munosabatlar, ma'lum va noma'lumliklarni aniqlash; tuzilmaga xos birliklarni ajratish va topish; aloqalarni anglash va tushuntirish;

guruhiy munozara – talabalarning mustaqil va ijodiy bilish faoliyatini rivojlantirish;

loyihalash texnologiyasi – talabalarning bilimlarni integratsiyalashga emas, ularni amaliyotda qo'llash va yangilarini o'zlashtirishga xizmat qiladi. Loyihalash texnologiyasi forsait usullarining qo'llanilishi orqali talabalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

3-jadvalda imitatsion texnologiyalarning ijodiy salohiyatni rivojlantirishga doir talabalar va professor-o'qituvchilar uchun imkoniyatlari taqdim etilgan.

1-jadval

#### Imitatsion texnologiyalarning binar imkoniyatlari

Talabalar uchun imkoniyatlari	Professor-o'qituvchi uchun imkoniyatlari
bo'lg'usi kasbiy-ijodiy faoliyatga doir tasavvurlarni shakllantirish;	innovatsion-pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash;
kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish;	o'quv jarayonini boshqarishni osonlashtirish;
divergent fikrlashni rivojlantirish;	o'qitish sifatini oshirish;
ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;	talabalarni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish;
imitatsion modellar hisobiga o'quv materillarini vizuallashtirish.	imitatsion modellar bilan ishlash vaqtini maqbullashtirish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayoni integral tavsifga ega bo'lib, uning faoliyati va xulq-atvorining yo'nalganligi, dinamikligi, samaradorligi va originalligini aniqlab beruvchi ijodiy shaxsga xos antropologik determinant xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik sifatlarni o'zida aks ettiradi.

Fan dasturiga kiritilgan har bir mavzu bevosita maktab hayoti bilan bog'liq bo'lib, talabalarni o'zlarini boshlang'ich sinf o'qituvchilari sifatida tarbiya fanini o'qitishga tayyorlashga doir imitatsiyalar foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" o'quv fani amaliy mashg'ulotlar jarayonida fanga doir mavzularni o'zlashtirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini maktab amaliyoti bilan bog'liq mazularda berilgan muammolarni ijobiy hal etishga doir ijodiy yondashuvni talab etadigan imitatsion metodlardan foydalanish mumkin. Shularning biri forsait texnologiyasi bo'lib, bu kabi texnologiyalardan har bir talabaning kelajakda o'zini qanday boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlari bilan bog'lanadi. Chunki "forsait" tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, "foresight" tushunchasidan olingan bo'lib

“kelajakga nazar tashlash”, “oldindan ko‘ra bilish”, - singari ma‘nolarni anglatib, bunda quyidagilar jihatlar nazarda tutilishi belgilangan:

- kelajakka intilishga doir o‘z faoliyatini tashkil etish yo‘llari,
- bugun va kelajak haqidagi fikrlash usullari,
- kelajak obrazini yaratish va unga erishishga doir guruhlarda ishlash texnologiyasi,
- kelajakning obrazini yaratish va unga erishish yo‘llarini loyihalash, bashorat qilish va yo‘l xaritasini tuzish va h.k.

Shu bilan bir qatorda ho‘xlagan farsaytni tuzish metodologiyasi faoliyatning bugun, kelajak, rejalashtirish (strategik tahlil) va networking (hamkorlikni yo‘lga qo‘yish) singari to‘rtta darajasini o‘z ichiga olishi keltirib o‘tilgan. Forsaytlarning yuqoridan pastga qaray, pastdan yuqoriga qaray, muayyan mavzuga doir farsaytlar, ikki qisimli kundalik farsayti, farsayt-sessiya, Rapid Foresight (tezkor farsayt) singari juda ko‘plab variantlarda qo‘llanilishini ko‘rish mumkin [2].

Forsayt texnologiyasidan asosan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish talabalarning kelgusida o‘zlarini boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari sifatida perspektiv faoliyatini tashkil etish motivlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 -yil 6 iyundagi 422-son Qarori asosida uzluksiz ta‘lim tizimiga, shu jumladan uning boshlang‘ich ta‘lim turiga ham ushbu fanni joriy etish ko‘zda tutilgan [1] Mazkur Qarorning 3-ilovada “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasi”ni qabul qilish masalasi belgilangan bo‘lib, bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari A2 kompetensiya va malaka talablarini o‘zlashtirishi talab etiladi. **A2 kompetensiyalar** bevosita baoshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qo‘yiladigan kompetensiya talablari bo‘lib, ularga orzu qila olish, maqsadini aniq qo‘ya olish va amalga oshirishga intilish, tanqidiy tafakkurga ega bo‘lish, mas‘uliyatni anglash, xamkorlik qila olish, axloq qoidalariga ega bo‘lish, to‘g‘ri harakatlarga amal qilish va qo‘llab-quvvatlash, jarayonlarda tashabbuslik ko‘rsatish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, faoliyatini tahlil qila olish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo‘la olish singari kompetensiyalarni shakllantirish talabi qo‘yilgan. Shu nuqtai nazardan bu borada 1-4-sinflar uchun yaratilgan darsliklar ham o‘quvchilarda shu kabi kompetensiyalarni shakllantirishga doir mantiqqa suyanadi. Ya‘ni, tarbiya fanidan 1-sinflarda o‘quvchilarni orzu qilishga o‘rgatish, 2-sinflarda orzuga erishish uchun maqsad qo‘yishga o‘rgatish, 3-sinflarda orzu va umidlarni amalga oshirishga harakat qilishga o‘rgatish hamda 4-sinflarda esa real hayotiy maqsadlarni qo‘ya olishga o‘rgatish ko‘zda tutilgan. Ya‘ni, tarbiya fani o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko‘maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma‘naviy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilish, o‘zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu kabi kompetensiyalarni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida shakllantirishga bugungi

bolajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash talab etiladi. Bunda "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda farsayt texnologiyalaridan ijodiy foydalanish lozim. Chunki bugungi kunda talabalarga berilayotgan ta'lim kelajakka, bugungi kun talabalarini ijodkor maktab o'qituvchisi sifatida tayyorlashga yo'naltiriladi. farsayt texnologiyasi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi mavjud muammolarni ilmiy va ijodiy yondashgan holda hal etishga kompetensiyalari shakllanib boradi. "Forsayt" tushunchasi ilk bor yozuvchi Gerbert Uells tomonidan qo'llanilgan bo'lib, bunda asosan mutaxassislarining o'z kelajagini oldindan ko'ri bilishi ko'zda tutiladi. Biz ushbu texnologiyaga ijodiy yondashgan holda farsayt topshiriqlarini bajarish jarayonida talabalar o'zlarini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari sifatida anglashi, sohani rivojlantirish hamda boshlang'ich sinflarda ta'limning sifatini oshirishga doir qanday ishlarni olib borish mumkinligini aniqlashga doir guruhli shaklda amallarni bajarishga yo'naltirishni maqsad qilib belgilab oldik. Ya'ni, farsayt texnologiyasi kelajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining obrazini yaratish bilan bog'liq holda qo'llash tavsiya etildi. Quyida "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani"dan amaliy mashg'ulotlar jarayonida farsayt texnologiyasidan foydalanish tavsiya etiladi. Imitatsion yondashgan holda farsayt texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni oshirish qo'yidagi singari algoritmgga va topshiriqlarga asoslanishi lozim.

**O'quv fani:** Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani.

**Mavzu:** Innovatsion yondashuv asosida "Tarbiya" darslarini tashkil etish.

**Topshiriq:** Men kalajakda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyasini qanday ko'raman.

**Forsayt:** Kelajakka nazar tashlash (oldindan ko'rib bilish).

**Forsaytni o'tkazish algoritmi:**

- 1-qadam - tezlik bilan bashorat qilish,
- 2-qadam – kichik guruhlarni shakllantirish,
- 3-qadam - fikrlar generatsiyasi,
- 4-qadam - amaliyot,
- 5-qadam – yangilik, yangilanish.

**1-qadam - tezlik bilan bashorat qilish Kelajak xaritasi**

Yaqin kelajak	O'rta kelajak	Uzoq kelajak
Yaqin kelajak avlodlarining tarbiyasi va o'ziga hos xususiyatlarini nimada ko'raman va o'qituvchi sifatida biz ular bilan qanday ishlashimiz kerak?	O'rta kelajak avlodlarining tarbiyasi va o'ziga hos xususiyatlari qanday bo'lishi mumkin va o'qituvchi sifatida biz ular bilan qanday ishlashimiz mumkin?	Uzoq kelajak avlodlarining tarbiyasi va o'ziga hos xususiyatlari qanday bo'lishi mumkin va o'qituvchi sifatida biz ular bilan qanday ishlashimiz kerak?

**Yaqin kelajak avlodlarining tarbiyasi va o'ziga hos xususiyatlari:**

Bu borada amaliyotchi-pedagogning o'zi ishlash tartibini qo'yidagicha tavsiflab berishi mumkin: Bugungi kunda AKT bilan bog'liq holda ta'limni tashkil etish davri etib keldi. Chunki bugunga Alfa va Z-avlodlarining psixologik rivojlanish darajasi o'ziga hos hisoblanadi. Alfa, ya'ni "Generation Alpha" (qisqacha "Gen Alpha") avlodlari deganimizda asosan XXI asrning boshlarida (2010-2020 yillarda) dunyoga kelgan avlodga aytiladi, ya'ni asrning boshlanishi yunon tilidagi birinchi xarf ( $\alpha$ ) bilan bog'liqdir [3]. Ya'ni, boshlanayotgan yangi asr bolalaridagi IT texnologiyalarni egallash tezligi va fikrlash tezligining integratsiyasiga shu avlod talablari doirasida pedagogik jarayonlarni tashkil etishni, ularning tafakkur doirasida kelajakka tayyorlashda jarayonlarni imitatsiyalashga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham ushbu davr avlodlari sifatida ularni kelajak kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir imitatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2-qadamda auditoriyada talabalar ikkita kichik guruhlariga ajratiladi; 3-qadamda kelajak avlod va uning tarbiyasi qanday bo'lishi mumkin va o'qituvchi sifatida ular bilan qanday innovatsion usullarda ishlash mumkinligi haqida fikrlari generatsiyalanadi; 4-qadamda yaqin, o'rta va uzoq kelajakda tarbiyalashda qanday amaliy ishlar oli borilishi yuzasidan aniq taviyalar ishlab chiqilida hamda 5-qadamda bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning optimal yo'llari tavsiya etiladi. Bu kabi ish faoliyati talabalarda bilim, kasbiy intuitsiya, fantaziya dan foydalangan holda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashishga doir yo'nalganlikning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishga doir **UCHINCHI SHART-SHAROIT** – faoliyat sub'ekti sifatida talabalarining shakllanishi hisoblanadi. Insonparvarlik paradigmasi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida faoliyat subyektining shakllanishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida ularning individual motivlari, birgalikdagi faoliyat maqsadlari, subyekt-subyekt munosabatlari asosida o'zaro birgalikdagi harakat ishtirokchilarining subyektiv tajribalarini hisobga olishni taqozo etadi. Ma'lumki muayyan vaziyatlardan kelib chiqqan holda har bir shaxsning ijtimoiy hayotdagi rejalari ham o'zgarib boradi. Shu kabi talabalar ham qo'lga diplom olib o'qituvchi bo'lishni orzu qilgan bo'lsa maktab hayotidagi pedagogik jarayonlar bilan oliy ta'lim muassasalarida egallagan kasbiy bilimlarning integratsiyasi ulardagi o'qituvchilik kasbni shunchaki egallash emas, balki akmeologik qonuniyatlar doirasida ijodkor o'qituvchi sifatida yuqori professionalizmga yo'naltirilishi muhim.

Talabalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishga doir **TO'RTINCHI SHART-SHAROIT** – bu refleksiyaning rivojlantirish hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiyaning rivojlantirish ularning subyektivligini shakllantirish sharti sifatida ko'rib chiqiladi. O'zining mohiyatiga ko'ra subyektivlik refleksiya qobiliyatlik

bilan ifodalanadi. Refleksiya – bu shaxsiy xususiyat va bir paytning o‘zida shaxsni rivojlantirish, uning professionalizmini shakllantirishni muhim omilidir. Pedagogik va psixologik nuqtai nazardan har bir shaxsning o‘z ijodining natijalaridagi kamchiliklarni anglagan holda uni o‘z nuqtai nazaridan baholab borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu jihat bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishda muhim sanaladi. Pedagogik amaliyot jarayonlarida talabalar o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan pedagogik jarayonlarni kuzatadi va tahlil qiladi. Pedagogik faoliyat jarayonida talabalarda “Men kelajakda qanday o‘qituvchi bo‘laman?”, “Kelajak pedagogik faoliyatimda nimalarga e‘tibor qaratishim kerak?”, “Qanday sifatlarga ega bo‘lishim kerak?”, “Bugungi kunda maktab hayotida xato-kamchiliklarga yo‘k qo‘yayotgan o‘qituvchilar faoliyatidan men qanday xulosalarga kelishim va o‘zim uchun saboq olishim mumkin?”, - singari savollarni vujudga keltiruvchi vaziyatlarni yaratish muhimdir.

Talabalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishga doir **BESHINCHI SHART-SHAROIT** ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonini boshqarish bilan bog‘liqdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonini boshqarish deganda pedagogik va mutaxassislik fanlarining didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, mazkur jarayonning samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan o‘quv ishlarining barcha usullari, turlari va shakllari bo‘yicha faoliyat tushuniladi. Mazkur jarayon quyidagi talablarga amal qilinsa, uni samarali boshqarishga erishish mumkin:

- 1) pedagogik va mutaxassislik fanlarini o‘rganish jarayonini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatining asosiy komponentlariga yo‘naltirish;
- 2) ijodiy o‘quv faoliyatini o‘zlashtirishga doir ishlarni tashkil etish;
- 3) mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish turlari, shakl va metodlariga yetakchi ustuvorlik qaratish;
- 4) ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini uyg‘unlashtirish;
- 5) ijodiy rivojlantiruvchi muhit doirasida ta‘lim jarayoni subyektlari harakatini muvofiqlashtirish;
- 6) professor-o‘qituvchi va talabalarning hamkorligi va samarali ijodiy faoliyatini ta‘minlash;
- 7) bosqichma-bosqich o‘quv-ijodiy faoliyatdan kasbiy-ijodiy faoliyatga o‘tish.

Demak, bizning nazarimizda **ta‘lim jarayonida imitatsiyalarni qo‘llash** orqali talabalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirish quyidagi didaktik talablarga javob berishi lozim:

- eng avvalo qo‘llayotgan imitatsion metod va texnologiyalar ta‘limning maqsadiga mos kelishi,
- o‘quv topshiriqlari imitatsion metod va texnologiyalarni qo‘llashga muvofiq kelishi,
- ta‘lim oluvchilarning echimlar qabul qilishiga xizmat qilishi,

- imitatsion metod va texnologiyalar ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyatiga mos tarzda qo'llanilishi,

- imitatsiyalash joyi va shakllarining aniq belgilab olishini (maktab, mashg'ulotlar yoki mashg'ulotlardan tashqari jarayonlar, mustaqil ta'lim jarayonida va h.k.).

**Xulosa.** Forsayt texnologiyasi ta'lim tizimida strategik rivojlanshmi ta'minlovchi samarali innovatsion yondasuvlardan biri hisoblanib, ta'lim jarayonida kelajakga nazar tashlash, oldindan ko'ra bilish strategik fikrlashni shakllantirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Shuningdek, forsayt texnologiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъжасининг 2020 йил 6-июлдаги “Умумий ўрта таълим муассасаларида “Тарбия” фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 422 сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)).
2. Rapid Foresight: методология. Д.Песков, П.Лукша и др. Агентство стратегических инициатив. –2017. 90 с.
3. Показание альфа. Материал из википедии. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. Rojdestvenskaya E.A. Современная методология прогнозирования развития системы образования (на примере форсайтов): АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание учёной степени кандидата философских наук. Москва, 2025. – С 30.
5. Izyumnikova S.A. Формирование готовности к информационно-аналитической деятельности с использованием технологий форсайт у будущих педагогов профессионального обучения: АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Челябинск, 2023– С 22.
6. Рахманова Р.Х. Развития творческих способностей будущих учителей начальных классов в процессе педагогической практики. Автореферат дисс.канд.пед.наук. - Душанбе, 2013. - 27 с.
7. Отажанов Ж.М. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида рефлексив кўникмаларини ривожлантириш: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореферати – Тошкент, 2020. – Б.50. 10 б.
8. Алланазарова Ш.А. Шахсга йўналтирилган дидактик вазиятларда ўқувчиларни бахс-мунозарага ундаш механизмлари: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореферати. – Нукус, 2021. – Б. 54.